

YURTIMIZDA TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH VA TA'LIM SOHASIDAGI
ISLOHOTLAR AHAMIYATI

Xursanmurodova Zulxumor Jahongir qizi
Samarqand davlat chet tililar instituti talabasi
Zubaydova N.N
Ilmiy rahbar

Annotatsiya: *Maqolada yurtimizda ta'lim tizimidagi islohotlar va ularning ahamiyati, ta'lim sohasini yuksaltirish masalalari, 2020-2025 yillarda xalq ta'limi tizimidagi o'zgarishlarning pedagogik mohiyati tahlil qilingan.*

Kalit soʻzlar: *ta'lim, ta'lim shakllari, inklyuziv ta'lim, UNCPRD, UNICEF, pedagogik tahlil, metod, ijtimoiy siyosat.*

KIRISH

Bugun yangi O'zbekiston jahon hamjamiyati safida o'z o'rniga ega bo'lib bormoqda. Mamlakatdagi har bir soha zamonga xos va mos tarzda rivojlantirilib, har bir sohada yangilanish nafasi ufurmoqda.

Keling uzoqqa bormay birgina ta'lim sohasidagi islohotlar haqida to'xtalaylik. Sababi keyingi yillarda yurtimizda maktab, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimida raqobat muhitini shakllantirish, davlat-xususiy sherikchilik va xususiy sektor resurslaridan keng foydalanish, aholining oliy ta'lim bilan qamrab olinishini rivojlangan davlatlar darajasiga yetkazishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yilib, yoshlarning jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashi, ularning qobiliyat va iste'dodini yuzaga chiqarish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Bu haqda gapirganda yangi oliy o'quv yurtlari, dunyodagi yetakchi universitetlarning filiallari tashkil etilib, oliy ta'lim muassasalari soni 125 taga yetganini alohida ta'kidlash joiz.

Yaqinda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun ushbu soha taraqqiyotida, hech shubhasiz, yangi ufqlarni ochib beradi. Negaki, unga muvofiq, ta'lim olishning masofaviy, inklyuziv shakllari joriy qilindi, ta'lim tashkilotlariga xorijiy muassasalar bilan qo'shma fakultet va o'quv markazlari tashkil qilishga ruxsat etilib, o'qituvchilarga mualliflik dasturi va o'qitish uslublarini joriy etish, zamonaviy pedagogik shakllar, o'qitish va tarbiya usullarini erkin tanlash huquqi berildi. Prezidentimiz 1-oktyabr Ustoz va murabbiylar kuni munosabati bilan tashkil etilgan bayram tadbiridagi nutqida oliy ta'lim sohasidagi yutuqlar bilan birga mavjud kamchiliklarni ham sanab o'tdilar. Oliy ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash darajasi past ekanligi qayd etildi. Haqiqatdan ham, bugungi axborot davrida mamlakatdagi barcha aholi punktlari va ta'lim muassasalariga zamonaviy optik tolali internet aloqa tizimini olib kirish hamda



"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



internet xizmatlari narxini pasaytirish hayotiy zaruratdir. Yechimini kutayotgan masalalardan yana biri aksariyat bitiruvchilarning bilim va malakasi mehnat bozori talablariga javob bermaydi. Mahalliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyat va tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish darajasi juda past. Bu borada partiyamiz "Har bir oila – tadbirkor" degan olijanob g'oyani izchillik bilan hayotga tatbiq etib, jamiyatda faol tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish, maktabdan boshlab oliy ta'lim muassasalarida ham tadbirkorlik darslarini o'tish, sohaga qiziqayotgan yoshlar uchun konsalting markazlarini tashkillashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Binobarin, bugun zamon shiddat bilan o'zgarib, barcha sohalar qatori ta'lim tizimi oldiga ham o'ta dolzarb va murakkab vazifalarni qo'ymoqda. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish nazarda tutilgan.

Konsepsiyaning maqsadli ko'rsatgichlarida 9 ta yo'nalish belgilangan bo'lib, ularning birinchisi – oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan. O'tgan 2019-yilda aholini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi jami bitiruvchilar soniga nisbatan 20 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2030-yilga borib bu ko'rsatgich 50 foizdan oshadi. Nodavlat, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida oliy ta'lim muassasalari soni 35 taga yetkaziladi.

Bular hali hammasi emas. Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasalari mustaqilligi joriy etiladi, ya'ni bosqichma-bosqich respublikamizda faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim muassasalari qabul kvotalarini o'z yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda mustaqil belgilaydi. Bu esa sohada sog'lom raqobat muhitini rivojlantiradi. Raqobat bor joyda sifat yaxshilanadi. Pirovardida, mamlakatda malakali kadrlar ko'payadi, aholining oliy ma'lumotli qatlami ortadi.

Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalarida chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida to'lqinlanib so'zlamalikning iloji yo'q. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni echish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi".

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil



"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi.

Kontsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi.

Bugungi kunda jahondagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari ilm-fanning yirik o'choqlari hisoblanishi hech kimga sir emas. Hozirda yangi-yangi oliy o'quv yurtlari, dunyodagi etakchi universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Misol uchun, so'nggi 5 yilda mamlakatimizda 47 ta yangi oliy ta'lim muassasasi, jumladan, xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilib, oliy o'quv yurtlarining soni 125 taga etdi. Davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yilmoqda. Aholi fikrini o'rgangan holda, sirtqi va kechki ta'lim shakllari qayta tiklandi, qabul kvotalari oshirilmoqda. Maktab bitiruvchilarini oliy ta'limga qamrab olish darajasi 2016 yilgi 9 foizdan 2020 yilda 25 foizga etdi.

Professor-o'qituvchilarning xorijdagi oliy ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot maskanlarida malaka oshirishi va stajirovka o'tashini ta'minlaydigan mexanizm yaratildi. Ularning oylik ish haqi miqdori 2018 yilga nisbatan o'rtacha 2,5 barobar oshirildi. Bu yildan boshlab 10 ta oliy ta'lim muassasasi o'zini-o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazildi.

Oliy ta'limga ajratiladigan davlat grantlari soni kamida 25 foizga oshirilganligi, oliy o'quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar sonini 2 barobarga ko'paytirib, 2 mingtaga etkazilishi oliy ta'limga qamrab olish ko'lamini yanada kengaytirdi. Ta'lim tizimidagi eng muhim yangiliklardan biri oliygohlar va ta'lim tizimining quyi bo'g'inlari o'rtasidagi uzviylikni kuchaytirish maqsadida 65 ta akademik litsey oliy o'quv yurtlari tasarrufiga o'tkazilishi, shuningdek, 187 ta texnikum ham o'z yo'nalishi bo'yicha turdosh oliygoh va tarmoq korxonalariga birlashtirilishi bo'ldi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan istiqbolli vazifalar, o'zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko'lamda davom ettirish davr talabidir. Axborot texnologiyalar asri deb nom olgan XXI asrda hayotning barcha jabhalarida – sanoat, qurilish, kimyo, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, mashinasozlik va boshqa sohalarda yuksak taraqqiyotni yuzaga keltirish uchun ilm-fanni rivojlantirish, bu borada yangiliklar yaratish hayotiy zaruratga aylandi. Bu jarayon endilikda dunyoda taraqqiyot yo'lini tutgan barcha mamlakatlarda e'tirof etilmoqda. Respublikamizda ham ana shu jarayonga alohida e'tibor berilmoqda.

REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020-yil 30-sentabr. (<http://marifat.uz/marifat/ruknlar/rasmiy/4939.htm>)
2. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. Lex.uz
3. BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi(UNCPRD) 2006-yil 13-dekabr
4. O'zbekiston Respublikasining 2020-2025-yillarda Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasi. (<https://lex.uz/docs/-5044711>)
5. ИБ Сиддиков. СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЁЖИ. Theoretical & Applied Science, 61-66
6. ИВ Siddikov . ФИЛОСОФСКО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ. Вестник Ошского государственного университета, 2019
7. M Mamatov, A Isomiddinov, S Yuldashev. Factors of Developing the Intellectual Abilities of the Youth. Factors of Developing the Intellectual Abilities of the Youth
8. International Journal of Progressive Sciences and Technologies 16 (2), 311-313\